O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU. ILMIY XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
FILOLOGIYA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ADABIYOTSHUNOSLIK

M.Asatulloyeva
Professional so‘zlar ishtirok etgan maqol va frazeologizmlarning pragmatik tahliliga doir 5
R.A.Ortiqov
Ingliz mifologiyasini talabalarga o‘qitishning zamonaviy asoslari 10
Q.V.Yo‘lchiyev
O‘zbek va qozoq xalq maqollarida kvantitativlilik 14
A.G.Sabirdinov
Mirtemir she’rlarining milliy jozibasi 19
D.G‘.Gafurova
Shamol-sarlavhali asarlarda inson va jamiyat tasviri 22

TILSHUNOSLIK

M.T.Abdupattoev
Muallif idiostilining lingvopoetik xususiyatlari 27
Н.Х.Алиева
Актуальность изучения диалектной лексики английского языка 32
Н.Х.Алиева
Интеграция традиционных и современных методов в исследовании лексико-семантических особенностей диалектов английского языка 35
Н.Х.Алиева
Региональное разнообразие английского языка и диалектное выравнивание в современной англии 41
L.A.Abdullayeva
Abbreviatsiya muloqot jarayonida til birliklarini tejash vositasi sifatida 46
M.R.Allambergenova
Kultegin yozma yodgorligida leksik takrorlarning ishlatilishi 51
U.M.Askarova
Birikma-kiritmalar va gap kiritmalar (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida) 56
A.A.Qosimov
Metaphorical dimensions: exploring the cognitive and cultural foundations of figurative language 61
M.E.Qobilov
Surxondaryo viloyati Qipchoq shevasi antroponimikasida enantiosemiya 69
G.X.Ismoilova
O‘zbek va ingliz tillarida “farsihta/angel” va “shayton/devil” leksemalari ishtirok etgan maqollarining tahlili 73
U.M.Askarova
Avtomatik tahrir dasturlarining savodxonlikni rivojlantirishdagi o‘rni 78
J.A.Akhrorova
Metonymy and its relation with discourse 81
Sh.U.Nosirova
Ingliz huquqiy matnlari tili leksik-semantik va grammatik xususiyatlarining lingvokulturologik jihatdan tahlili 84
Sh.U.Nosirova
Ingliz kasbiy muloqotida pragmatik vositalarning o‘rni 89
U.M.Askarova, D.X.Xolbekova
Matn tuzilishida tinish belgilarining o‘rni va vazifalari 93
A.R.Kosimov
So‘zlarning shaxsga hissiy ta’siri xususiyatlari 97
Г.Н.Давлятова, Х.Б.Хотамова
Идиоматические выражения в свете лингвокультурологии 101

З.С.Аманова
Анализ культурно-исторических смыслов символов и знаков в современном информационном пространстве 105

TILSHUNOSLIK

FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University

Volume 31 Issue 5, 2025-yil DOI: 10.56292/SJFSU/vol31_iss5/a85

UO'K: 811.111'367.625

ABBREVIATSIYA MULOQOT JARAYONIDA TIL BIRLIKLARINI TEJASH VOSITASI SIFATIDA

АББРЕВИАТСІЯ КАК СРЕДСТВО ЭКОНОМИИ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ В ПРОЦЕССЕ КОММУНИКАТСИИ

ABBREVIATION AS A MEANS OF SAVING LANGUAGE UNITS IN COMMUNICATION

Abdullayeva Laziza Abrorovna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti katta o'qituvchisi, f.f.b.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada tilshunoslikdagi muhim jarayonlardan biri bo'lgan abbreviatsiya hodisasi hamda uning kommunikativ jarayonda til birliklarini tejashdagi o'rni o'rganiladi. Abbreviatsiyalar til resurslarini tejash tamoyiliga asoslanib, zamonaviy nutqiy faoliyatda ma'lumotni ixcham shaklda yetkazish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotda abbreviatsiya va abbreviatura tushunchalari orasidagi farqlar, ularning lingvopsixologik va pragmatik xususiyatlari tahlil etilib, huquqiy soha misolida amaliy ko'rinishlari yoritilgan. Natijada, abbreviatsiya kommunikatsiyada axborotni samarali uzatish, vaqt va nutq energiyasini tejash vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etishi asoslab beriladi.

Аннотация

В статье рассматривается одно из актуальных лингвистических явлений — аббревиатсія и её роль в экономии языковых единиц в процессе коммуникатсіи. Аббревиатуры, основываясь на принципе языковой экономии, выступают как эффективное средство передачи информатсіи в сжатой форме в современной речевой практике. В работе анализируются различия между понятиями «аббревиатсія» и «аббревиатура», их лингвопсихологические и прагматические особенности, а также приводятся примеры из юридической сферы. В заключение делается вывод о значимости аббревиатсій как средства оптимизатсіи речевого общения.

Abstract

This article explores the phenomenon of abbreviation as a key linguistic process and its role in achieving linguistic economy in communication. Based on the principle of language economy, abbreviations serve as efficient tools for conveying information concisely in modern discourse. The study analyzes the distinction between the terms "abbreviation" and "abbreviated form", focusing on their psycholinguistic and pragmatic aspects, with practical examples from the legal domain. The findings emphasize the importance of abbreviations in optimizing communication by reducing speech time and cognitive load.

Kalit so'zlar: *abbreviatsiya, til resurslarini tejash, qisqartmalar, kommunikativ jarayon, pragmatika, psixolingvistika, huquqiy terminologiya.*

Ключевые слова: *аббревиатсія, языковая экономия, сокращённые слова, коммуникативный процесс, прагматика, психолингвистика, юридическая терминология.*

Key words: *abbreviation, language economy, shortened words, communicative process, pragmatics, psycholinguistics, legal terminology.*

KIRISH

Til evolyutsiyasi jarayonida insonning nutqqa bo'lgan ehtiyoji, turli lisoniy an'ana hamda mexanizmlar aks etadi. Shuningdek, mazkur jarayon insonga xos aqliy va jismoniy faollikni minimallashtirish istagi o'rtasidagi doimiy qarama-qarshilik, til lug'at boyligidagi kamchiliklarni bartaraf etish, uning yangi shakllari va ularning doimiy rivojlanishi o'rtasida farqlarni yuzaga keltirishi bilan belgilanadi.

Tilshunoslar so'z yasalish jarayonining o'sishi va, shu bilan birga, tilda yangidan paydo bo'lgan leksik birliklarni o'rganish ahamiyatli ekanligini alohida ta'kidlashadi. Zero, tilga yangidan kirib keluvchi leksikaning zamonaviy turlaridan biri abbreviatsiya hisoblanadi. V.V.Borisovning ta'biricha, XX asrni "abbreviatsiya asri" [5, 3], deb aytish mumkin. Globallashuv jarayoni natijasida qisqartirilgan leksikaning katta qatlamlari paydo bo'la boshladi. Buni biz jamiyatimizning barcha sohalarida qisqartmalarning ko'payib borayotganing guvohi bo'lib bormoqdamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jumladan, qisqartmalarning turli nutq uslublarida bir nechta vazifalarni bajarishi bilan tavsiflanadi. Muhimlik jihatidan abbreviaturalarning nominativ va axborot yetkazish funksiyalarini alohida ko'rsatish mumkin. Abbreviatsiya ko'rinishidagi nominativlikning ahamiyati shundaki, u ijtimoiy hayotdagi yangi tushunchalarni nomlash ehtiyojining o'sishi bilan bog'liq. Bu haqida Y.Gorshunovning fikricha, abbreviatsiya hodisasi har doim kommunikantlar o'rtasidagi nutqiy muloqot jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish uchun yuz beradi [8, 19]. Bunday maqsad ma'lumot yoki xabar olish, shuningdek, ishning holati to'g'risida fikr almashish bo'lishi mumkin. Zotan, maqsad bo'lsa, albatta, unga erishish uchun vosita ham zarur. Zamonaviy tilshunoslik ushbu vositalardan og'zaki va yozma aloqa shakllari orqali ma'lumotni qabul qilish va uzatish hodisasining mohiyatini kengroq tushunishga imkon beradi.

Abbreviatura funksiyalari ma'lum bir fikrning matn ichidagi yashirin ma'nolarni yetkazganligi sababli, qisqartmalarning bu funksiyasi tilning har qanday leksik tizimlarining maqsadlaridan kelib chiqadi, deb aytish mumkin. V.Raskin "Bu, birinchidan, terminning axborot yetkazish vazifasini va, ikkinchidan, qisqartirilgan terminlarning shakllanishini anglatadi" [15, 149], deya ta'kidlaydi. Buning sababi shundaki, haqiqiy dunyo har doim tildan ko'ra yangi so'zlarga boyroq va u har doim o'zgarib borganligi bois olamning lisoniy manzarasi rivojlanishidan ustun turadi.

"Bugungi kunda 1940-yillardan beri o'rganilayotgan aloqaning ilmiy va amaliy muammolaridan kelib chiqqan axborot nazariyasi jamiyatni bilish uchun zarur vositaga aylandi. Axborot hodisasining xarakterli xususiyatlarini umumlashtirgan holda ta'kidlash mumkinki, mazkur hodisaning asosiy xususiyati faqat ma'lum bir aloqa tizimining kommunikatsiya sistemasida "noaniqlikni kamaytiradigan" miqdori bilan o'lchanmaydi" [11, 23]. Shunday qilib, til vositalariga asoslangan ma'lumotlarni uzatish, ma'lum bir kommunikativ vaziyat mezoniga asoslanadi, natijada muallif va o'quvchini lisoniy vositalardan tejamli foydalanishga majbur qiladi va qisqartmalarning lingvopsixologik, lingvopragmatik jihatlarini o'rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

D.I.Alekseyev, V.V.Borisov, E.A.Zemskaya, E.S.Kubryakova, A.P.Shapovalova, Y.V.Gorshunov, G.Marchand kabi ko'plab tilshunoslar tomonidan abbreviatsiya va uning tipologiyasiga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotchilar ko'pincha qisqartmalarning tarkibiy, leksik va semantik xususiyatlariga, shuningdek ularning til tizimidagi vazifasiga e'tibor berishadi. Uning eng bahstalab muammolaridan biri "abbreviatura" va "abbreviatsiya" terminlari o'rtasidagi farqni aniqlashdan iborat. Ushbu terminlar asosi lotin tilidan olingan "abbrevio" – "qisqartiraman" va italiyan tilidan olingan "abbreviatura" – "qisqartirish" ma'nolari bilan aloqador.

Kundalik nutqiy muloqotda abbreviatura bo'g'inlardan, so'zlarning boshlang'ich tovushlaridan yoki bir nechta so'zlarning bosh harflari nomlaridan hosil bo'lgan yangi so'z sifatida tushuniladi. Abbreviatsiya deganda, o'z navbatida, qisqartmalar hosil bo'lish jarayoni ham anglashiladi. Lingvistik ensiklopediyaning izohli lug'atida quyidagi ta'rif mavjud: "Abbreviatura – bu asl iboraga kiritilgan kesilgan so'zlardan yoki asl murakkab so'zning kesilgan tarkibiy qismlaridan tashkil topgan ot bo'lib, uning so'nggi komponenti butun so'z ham bo'lishi mumkin" [17, 70].

A.P.Shapovalovaning fikricha, "abbreviatsiya" bu qisqartirilgan leksik jarayonni anglatsa, "abbreviatura" – mazkur jarayonning natijasidir" [20, 38].

Ba'zi tilshunoslar izohicha, "abbreviatura til vositalarini tejash natijasi bo'lib, so'z va so'z birikmalarining boshlang'ich asosidan yangi so'z, ya'ni abbreviatura hosil bo'ladi". Ularning fikriga ko'ra, "abbreviaturani qo'shma so'z tarkibiga kiritish lozim, bundan tashqari, yangi so'z asl so'zdan qisqaroq bo'lishi kerak, ayni paytda, uning sinonimi sifatida xizmat qilishi kerak" [2, 187-188].

V.N.Shevchukning ta'kidlashicha, "abbreviatsiya so'zning formal qurilish variantlaridan biri, undan kelib chiqadigan to'liq so'z ham, qisqartma ham ma'noga ega" [21, 120].

V.V.Borisovning fikricha, "abbreviatura nutqning ma'lum bir kengaytirilgan qismining alohida qismlaridan alfavitli, tovushli ko'rinishidan iborat va u nutqqa bevosita leksik va semantik jihatdan bog'liq. Abbreviaturani shakllantirishda alohida tovushlar, tovushlar guruhlari va hatto to'liq shakllangan komponentlarning turli xil kombinatsiyalari ishtirok etishi mumkin" [5, 100]. Demak, abbreviatsiya jarayoni tarkiban ajralmas butunlik bo'lib, bir birlikdan boshqasi hosil bo'ladi hamda ularning har biri ma'no va tovushning birligini ifodalaydi. D.I.Alekseyev "abbreviatura atamasini ta'riflaydi va uning turiga mos keladigan qisqartmalarni alohida ajratib ko'rsatib, leksik qisqartmalar yaratish jarayonini tavsiflaydi" [1, 71]. Bunda qisqartma o'zining prototipi bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

D.I.Alekseyev va E.A.Zemskaya "abbreviatura terminini grafik qisqartmalar yoki grafik abbreviaturalar va leksik qisqartmalar yoki qo'shma so'zlar ma'nolarida qo'llaydilar" [13, 72].

Hosila birlikning bevosita bosh so'z bilan bog'lanishi abbreviaturani tushunishda asosiy hisoblanadi. Biz o'z tadqiqotimizda E.S.Kubryakovaning ta'rifiga amal qilamiz. U abbreviaturani: "Bosh komponentni asoslovchi qismini o'zida ifodalagan so'z maqomiga ega bo'lgan nominativ birlikdir" [16, 71], deb ataydi. Bizningcha, ushbu ta'rif manba shaklini qisqartmaga aylantirish usuli abbreviatsiya va so'z yasalishi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni va uni mustaqil leksik birlik sifatida yangi shakl hamda mazmunga ega ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur so'z yasalish shakli tez sur'atda rivojlanishiga qaramay tilshunoslar orasida "qisqartma" va "abbreviatura"ni farqlash zarurati bor yoki yo'qligi xususida biror bir yechimga kelmaganlar. Bu tushuncha ingliz tilida ham *shortening (shortened words), clipping, blending, abbreviation, acronym* kabi nomlar bilan ataladi.

Fikrimizning dalili sifatida O.D.Meshkov, I.V.Arnold, A.P. Shapovalovalarning tadqiqotlarini misol keltirishimiz mumkin. Mazkur masala xususida L.Bauer "ingliz tilida ushbu so'z yasalishini akronim hamda abbreviatura tarzida tahlil etgan" [3, 311].

A.Hojiyevning fikricha: "Termin-qisqartmalar, tilda leksik birliklarni hosil qiladi va tilning lug'at tarkibiga kiritiladi" [22, 16]. Umuman olganda, nutqda ishlatiladigan abbreviaturalarni qisqarishi jarayoni so'z hosil qilish turining xususiyatini aniqlash uchun juda muhimdir.

NATIJA VA MUHOKAMA

Til vositalarini tejamli ishlatish muammolari o'rganilayotgan tadqiqotlarda mazkur hodisa tilni rivojlantirishning asosiy turlaridan biri sifatida ko'rib chiqiladi. Bu jarayon insonning nutq shakllaridan foydalanish yo'nalishini takomillashtirishga bo'lgan turli intilishlari bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Albatta, mazkur axborot almashinuvi kommunikativ muloqotda aqliy va jismoniy energiyaning minimal sarflanishini talab qiladi. Shu tariqa, til resurslarini tejash hodisasi o'z ifodasini topadigan birlamchi soha aynan kommunikatsiya jarayoni bo'lib, uning axborot almashish vositasi diskurs sohasi ekanligini tushunish qiyin emas.

Demak, "bu – ma'lum bir ma'no yoki ma'lumotni aniqlash uchun ixcham, qisqa va jipslashgan ifoda shakllaridan foydalanishni anglatuvchi ibora. Til vositalarini tejash matnlarning haddan tashqari uzun tafsilotlaridan qochishga yordam beradi, ularni o'qish va tushunishni osonlashtiradi" [23, 15]. Nutqiy tejamkorlik nafaqat kundalik muloqot uchun, balki so'zlarning aniqligi va ravshanligi asosiy rol o'ynaydigan sohaviy matnlar uchun ham muhim. Qisqartmalar, abbreviaturalar va ixtisoslashtirilgan terminlardan foydalanish orqali so'zlarni minimal darajada ishlatish bilan matnning maksimal ma'lumotliligi va tushunarliligiga erishish mumkin. Aslida bu holatda, aksincha, V.A.Zveginsevning so'zlariga ko'ra, "abbreviatura hodisasi uchun "tejash" terminini emas, balki "maqsadga muvofiqlik" terminini ishlatish mumkin" [14, 93]. Aynan abbreviatsiya jarayonini o'rganish bizga til resurslarini tejash hodisasining asosiy sababini, uning mohiyatini adekvat tushunishga yordam beradi.

R.A.Budagov, V.Gorn, O.Jespersen, A.Martine, P.Zumptor kabi ko'pgina taniqli olimlar til resurslarini tejash tamoyili masalasiga e'tibor berganliklari ma'lum. Ularning aksariyati o'z tadqiqotlarida til, birinchi navbatda, aloqa vositasi rolini yanada mukammalroq bajarish uchun rivojlanadi, biroq tilni tejash va maqsadga muvofiqligi prinsipi nutq sharoitida rivojlanib borishini inkor etib bo'lmaydi.

"Aloqa-aralashuvda eng ko'p uchraydigan nutqiy tejamkorlik bir nechta komponentdan tarkib topgan so'z birikmasida ifodalangan tushunchalarni yetkazish uchun abbreviaturalardan foydalanishda namoyon bo'ladi" [12, 80]. Masalan, biror bir tashkilot/muassasa yoki muayyan terminning to'liq nomini takrorlash o'rnida qisqartma ishlatiladi. Bu matn hajmini kamaytirishga, uni yanada ixcham ifodalashga va fikrning tag ma'nosini kuchaytirishga imkon beradi.

Bizningcha, til resurslarini tejash tamoyilini quyidagicha tushunishimiz mumkin: tejamkorlik lisoniy hodisa sifatida aloqa jarayonida joy va vaqtni tejashga imkon beradi va o'zaro muloqotda qisqartmalarni tushunishga xalaqit bermaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, boshqa til hodisalarining, masalan, nutqni tushunishning to'laqonliligi pragmatik-semantik kategoriyaning muhimligini ko'rsatadi.

"Nutq birligi tugal mazmunga ega gaplarning o'zaro ta'siri dialogik diskursning o'suvchan munosabatdorligini hosil qiladi" [210, 7]. Shu bois tilda abbreviatsiya jarayonining hosil bo'lishi

tadqiqotimizda E.Benvenistning lisoniy terminologik metodologiyasiga ko'ra, "gapda ifodalangan axborot sig'imining kengayuvchanligi" [4, 248] g'oyasi alohida ahamiyatga ega. Bu holatda nutqning ushbu dinamik xususiyati til va nutq elementlarining ozaro ta'sirida oydinlashadi.

Ma'lumki, "gapning mazmun va ifoda plani so'zning kontekstdagi kommunikativ vazifasiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan gap va uning tarkibiy elementlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega" [9, 52-72]. Shu bois, kommunikatsiya subyektlari o'rtasidagi munosabatlar tadqiqi masalasi psixolingvistika va psixologiyada birinchi o'ringa chiqadi.

"O'zbek tilshunosligida tilning kommunikativ funksiyasi masalalari "til-me'yor-nutq" trixotomiyasi orqali izohlanadi, chunki u inson tafakkurining moddiy ko'rinishi bo'lib, fikrni shakllantirish qurolidir" [19, 28].

Mazkur tadqiqotimizning obyekti huquqiy sohaning rivojlanishi kontekstida so'zning kommunikativ vazifasi ifodalangan leksik qisqartmalar bo'lganligi uchun kuzatishlarimiz soha faoliyatida ulardan foydalanish ko'rsatkichlari kun sayin oshib borayotganligini e'tirof etish imkonini beradi. Tilning doimiy taraqqiyoti boshqa birliklar kabi yangi terminlarning vujudga kelishiga ham sabab bo'ladi. Bunday vaziyatda yangi terminlarning huquqshunoslar uchun ham, jamiyatning oddiy fuqarolari uchun ham tushunarli bo'lishini ta'minlashga ko'maklashish tilshunoslar zimmasidagi muhim vazifalardan biri sanaladi. Jamiyatda har bir shaxs o'z haq-huquqini bilib undan to'g'ri foydalanishi uchun huquqiy terminlarning ma'nosini tushunishi lozim. Shuni ta'kidlash kerakki, huquqiy atamalar barqaror va izchil bo'lganligi uchun, ko'p qo'llaniladigan abbreviaturalar asrlar davomida saqlanishi va doimiy ishlatilishi mumkin.

Turli tillarda qo'llaniladigan abbreviaturalar lug'atlarida bir necha o'n minglab abbreviatura birliklari mavjudligini kuzatamiz. Bu esa, o'z o'rnida, qisqarish jarayoni, til resurslarini tejash tendensiyasi turli tillarda tilning lug'at boyligini oshirishning eng samarali usullaridan biri sifatida keng tarqalganligidan dalolat beradi.

"Soha mutaxassislari nutq birliklarini tejash til qonuniyatlari asosida yuz berishini ta'kidlaydilar" [18, 61]. Fikrni qisqa leksikalashgan o'ziga xos tuzilishga ega til birliklari orqali yetkazish til resurslarini tejashning eng muhim vazifasidir. Ushbu xususiyat matnlarni idrok etishni osonlashtirish, hajmni kamaytirish va semantik tarkibni saqlab qolish orqali aloqani optimallashtirishga qaratilgan [6, 73]. Zero, til tejash nazariyasi nafaqat tilshunoslik, balki falsafa va iqtisod tushunchalari sirasidan ham o'rin egallaydi.

Tadqiqotchi J.D.Eltazarov o'zining monografiyasida "o'zbek va boshqa qardosh turkiy tillar misolida tildagi tejamlilik tamoyili xususida fikr yuritadi. Uningcha, tejamlilik tamoyili ko'zlangan axborotni iloji boricha tezroq ma'lumot yetkazishi kerak bo'lgan aloqa jarayonini belgilaydi. Shuningdek, til resurslarini tejash tamoyilining amal qilishi til resurslarini ortiqcha qo'llashga bo'lgan ehtiyojni bartaraf eta oladi" [24, 110].

XULOSA

Quyidagi tejash tendensiyalari uchun til vositalari juda muhimdir:

1) "nutqda uzatilayotgan axborot miqdori va uni uzatish vositalari soni o'rtasidagi eng maqbul nisbatga erishishni bildiradi";

2) "nutqda til vositalarini saqlash jarayonining asosini tashkil etuvchi maqsadga muvofiqlik kategoriyasi, o'z navbatida, kommunikantlarning nutqiy o'zaro ta'sirining muvaffaqiyatini belgilovchi so'zning relevantlik kategoriyasini belgilaydi".

Shu tariqa til tejamkorligi nutq jarayonida abbreviaturalardan foydalanishni taqozo etadi, bu esa, kontekstning joy va vaqtni tejashga imkon beruvchi oddiy sintaktik qurilishini ta'minlashga yordam beradi. Maqsad aniqroq va idrok etish osonroq bo'lgan matnni yaratish va zamonaviy dunyoda tezkor aloqa tezligiga moslashish bo'lsa-da, til resurslarini qisqartirish tendensiyasi mavjud. Qisqartmalarni terminologik lug'atlarning alohida qatlamlariga ajratishdan tashqari, terminining muhim xususiyatlarini – abbreviaturalarni tahlil qilish uchun zarur standartlar allaqachon aniqlangan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алексеев Д.И. Из истории русской аббревиатsiи (графические сокращения X–XVII веков) // Вопросы диалектологии и истории русского языка. – Куйбышев, 1970. – С.71.

2. Бабарыкин В.С. К вопросу об аббревиатурах в современном американском варианте английского языка / В. С. Бабарыкин К. М. Денисов // Вопросы лингвистики и преподавания иностранных языков. – Ч. 1. – Курск, 1996. – С. 187–188.
3. Bauer L. English Word-Formation . – Cambridge: Cambridge University Press. – 1983. – 311 p.
4. Бенвенист Э. Общая лингвистика. – М.: Прогресс, 1986. – С.248.
5. Борисов В.В. Аббревиatsiя и акронимия. Военные и научно-технические сокращения в иностранных языках. – М.: Воениздат, 1972. – С.3.
6. Будагов Р.А. Введение в науку о языке. – М.: Наука, 1965. – С.73.
7. Гак В.Г. Асимметрия лингвистического знака и некоторые общие проблемы терминологии. – М.: Наука, 1998. – С.210.
8. Горшунов Ю.В. Прагматика аббревиатуры. – М.: Прометей, 1999. – С.19.
9. Gordon D. Postulats de conversation / D. Gordon, G. Lakoff. G. Langages. – Paris: Didier- Larousse, 1973. № 30. – P. 32-55.
10. Grice H.R Logique et conversation. // Communications. – Paris: Seuil, 1979. – № 30. – P. 57-72.
11. Даль Э. Возникновение и сохранение языковой сложности. – М.: ЛКИ, 2009. – С.23.
12. Елькин В.В. Диалогическая речь – основная сфера реализатsiи языковой экономии: Дисс. ... канд. филол. наук. – Пятигорск, 2001. – С.120.
13. Земская Е.А. Современный русский язык. Словообразование. – М.: Просвещение, 1973. – С. 30.
14. Звегинцев В.А. Очерки по общему языкознанию. – М., 1962. – С. 93
15. Раскин В.К. Теории языковых подсистем. – М.: Изд-во ЛКИ, 2008. – С.149.
16. Кубрякова Е.С. Язык: теория, история, типология. – М: Едиториал УРСС, 2000. – С. 71.
17. Лингвистический энциклопедический словарь / гл. ред. В.Н. Ярцева. – 2-е изд., доп. – М.: Большая Рос. энцикл., 2002. – С.70.
18. Мартине А. “Принцип экономии” в фонетических изменениях. – М.: Изд-во иностранной литературы, 1960. – С.61.
19. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари: Олий ўқув юрти талабалари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б.28.
20. Шаповалова А.П. Опыт построения общей теории аббревиатsiи: на материале французских сокращенных лексических единиц: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – М., 2004. – С.38.
21. Шевчук В.Н. Военно-терминологическая система в статике и динамике: Дисс. ... докт. филол. наук. – М., 1985. – С.120.
22. Ҳожиев А. Термин танлаш мезонлари. – Тошкент: Фан, 1998. – Б.16.
23. Ципф Дж. Поведение людей и принцип наименьшего усилия. – М., 1949. – С. 15
24. Элтазаров Ж.Д. Тилдаги тежамлилик тамойили ва қисқарув. Монография. – Самарқанд: СамДУ, 2004. – Б.110.